

Isaboyeva Zuxra Botirovna
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura tinglovchisi
E-mail: isaboyevazuhra@gmail.com
Tel: (99) 356-36-08

PENITENSIAR TIZIMDA MAHKUMLARGA NISBATAN QIYNOQLARNING OLDINI OLISHGA DOIR MASALALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahkumlar bilan muomala qilish bo‘yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari)ning qiynoqlarning oldini olishga doir qoidalarning O‘zbekiston qonunchiligida aks ettirilganligi, qiynoqlarni oldini olish bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, erkin harakatlanish huquqi cheklangan joylarda saqlanayotgan shaxslardan qiynoq, g‘ayri-insoniy xatti-harakatlar amalga oshirilganligi yuzasidan kelib tushgan murojaatlar va ularning hal etilganligi haqida statistik ma‘lumotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Penitensiar tizim, qiynoq, qiynoq yuzasidan shikoyatlar, qiynoqlarni aniqlash, monitoring tashriflari.

Аннотация: В данной статье в законодательстве Узбекистана отражены положения Минимальных стандартных правил обращения с заключенными Организации Объединенных Наций (Правил Манделы) о предотвращении пыток, меры, принимаемые компетентными органами по предотвращению пыток, право на свободу движение приведено мнение о поступивших обращениях по поводу пыток и бесчеловечного поведения от лиц, содержащихся в местах ограниченного доступа, и статистической информации об их разрешении.

Ключевые слова: Пенитенциарная система, пытки, жалобы на пытки, выявление пыток, мониторинговые посещения.

Abstract: This article reflects the provisions of the United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (Mandela Rules) in the legislation of Uzbekistan for the prevention of torture, measures taken by the competent authorities to prevent torture, the right to freedom of movement. An opinion is given on the received complaints regarding torture and inhumane behavior from persons held in places of restricted access, and statistical information on their permission.

Key words: Penitentiary system, torture, complaints of torture, identification of torture, monitoring visits.

Mahkumlar bilan muomala qilish standartlari bo‘yicha xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha xalqaro hujjatlar jinoiy hukmlarning ijrosini insonparvarlashtirish va ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga, shuningdek, sharoitlarga iloji boricha yaqinroq sharoitlar yaratish orqali tuzatish faoliyatini amalga oshirishni ta‘minlaydigan shunday jazo qonunchiligini yaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz o‘zining rasmiy veb-saytida mahkumlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator xalqaro konvensiyalar va qoidalar mavjud ekanligini ta‘kidlab¹, ularni quyidagilarga bo‘lish mumkinligini keltirib o‘tgan:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz rasmiy veb-sayti.
<http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/makumlarning-uulari>

Majburiy (imperativ) hujjatlar: Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiya (1965), Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiya (1979), Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga qarshi konventsiya (1984), Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiya (1989), Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiya (2006).

Tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan aktlar: Barcha shaxslarni qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolardan himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya (1975), Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha minimal standart qoidalar (Pekin qoidalari) (1985), Qamoq jazosi bilan bog'liq bo'lmagan chora-tadbirlar bo'yicha Minimal standart qoidalar (Tokio qoidalari) (1990), Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari) (2015), BMTning mahkum ayollarga munosabati va huquqbuzar ayollarga nisbatan qamoqqa olinmaslik choralari bo'yicha qoidalari (Bangkok qoidalari) (2010), BMTning balog'atga yetmagan bolalar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha qo'llanmasi (1990), Ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilish bo'yicha BMT qoidalari (1990), Huquq-tartibot idoralari xodimlarining axloq qoidalari (1979), Shifokorlar mahkumlarni qiynoqlardan va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazodan himoya qilishda tibbiy etika printsiplari (1982), Har qanday hibsga olish yoki qamoqqa tashlangan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to'plami (1988), Mahkumlar bilan muomala qilishning asosiy printsiplari (1990), Jinoyat odil sudlov tizimidagi bolalar uchun harakatlar bo'yicha qo'llanma (1997), Jinoyat ishlarida odil sudlovni tiklash dasturlarini qo'llashning asosiy printsiplari (2002 y.), Jabrlangan bolalar va jinoyat guvohlarining ishtiroki bilan bog'liq masalalarda odil sudlovga oid ko'rsatmalar (2005), O'lim jazosiga duch kelganlarning huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydigan choralar (1996).

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 8-moddasiga muvofiq, mahkumlar qonunda belgilangan istisnolar va cheklashlarsiz, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ko'zda tutilgan huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarga egadirlar.

Sudlangan chet el fuqarolari, shuningdek, o'z davlatlarining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida diplomatik va konsullik muassasalariga yega bo'lmagan davlatlar fuqarolari o'zlarining manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmasiga olgan davlatning diplomatik vakolatxonalarini bilan aloqa qilish huquqiga egadirlar². Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan, uncha og'ir bo'lmagan ijtimoiy xavfi va uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun mahkum bo'lganlar saylovda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vakilga murojaat etish huquqiga ega.

Yozma ravishda (xatlar va telegrammalar) ularning soni cheklanmagan holda, muassasa ma'muriyati tomonidan ko'rib chiqilmaydi va yigirma to'rt soatdan kechiktirmay tegishli vakolatli shaxsga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vakilning tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi javobi ko'rib chiqilmaydi va darhol murojaat etuvchiga yetkaziladi.

² <https://www.ombudsman.uz/uz/docs/qiynoqlarni-oldini-olish-boyicha-2023-yilda-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-oliy-majlisning-inson-huquqlari-boyicha-vakilining-ombudsmanning-maruzasi>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi farmoniga muvofiq, Markaz jazo va qamoq joylarining ijro etilishini nazorat qilish huquqiga ega³.

Qiynoq holatlarini aniqlash va uning oldini olish, u bilan bog‘liq murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini hamda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 2020-yildagi Milliy strategiyasida belgilangan vazifalarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq Ombudsman huzurida Qiynoqlarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha jamoatchilik guruhlarini tashkil etildi.⁴

Ma‘lumot uchun, mamlakatimizda bugungi kunda 43 ta jazoni ijro etish koloniyalari (25 tasi manzil-koloniyalari) va 11 ta tergov hibsonalari mavjud bo‘lib, ularda jazo o‘tayotgan mahkumlar soni 28 mingdan ortiqni yoki 100 ming kishiga 78 nafarni tashkil etadi.⁵

Qiynoqlarni oldini olish bo‘yicha 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (Ombudsmanning) bergan hisobotiga ko‘ra⁶, qiynoqlarni aniqlash va ularning oldini olish maqsadida Ombudsman va Jamoatchilik guruhlarini tomonidan 2023-yilda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga 603 marotaba monitoring tashriflari amalga oshirildi.

“Monitoring tashriflarining 152 tasi jazoni ijro etish koloniyalarida, 116 tasi tergov hibsonalarida, 119 tasi vaqtincha saqlash hibsonalarida, 48 tasi Narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining filiallarida, 41 tasimaxsus koloniyalarda, 37 tasi Sahovat va Muruvvat uylarida, 35 tasi Ruhiy-asab kasalliklari shifoxonalarida, 34 tasi Mastlik holatida bo‘lgan shaxslarga tibbiy yordam ko‘rsatish punktlarida, 21 tasi Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlarida o‘tkazilgan.

Ushbu monitoring tashriflari davomida to‘qqiz mingdan ortiq mahkum (mahbus) bilan jamoaviy va 3754 nafar mahkum (mahbus) bilan yakka tartibda holi suhbatlar o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, yakka tartibdagi suhbatlarda 412 ta murojaatlar qabul qilinib, Ombudsman tomonidan nazoratga olingan holda o‘rganilgan. Joylardagi jazoni ijro etish muassasalari, prokuratura va boshqa mas‘ul idoralar bilan hamkorlikda 1357 ta og‘zaki murojaat ijobiy hal etilgan. Shuningdek, yakka tartibdagi holi suhbatlarda qilingan 1985 ta murojaat yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berilgan”.

Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylardagi Jamoatchilik guruhlarini va Ombudsman tomonidan aniqlangan ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda salbiy holatlarning haligacha salqanib qolayotganligi ma‘lum bo‘lgan. Jumladan, Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Taxiatosh tumani filialida saqlanayotgan bemorlarga yaratilgan sharoitlar belgilangan talablarga javob bermasligi ma‘lum bo‘lgan.

Ombudsmanga harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylardagi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari va himoyachilaridan 2023-yil davomida jami bo‘lib 2662 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning 412 tasida sud hukmi ustidan, 403 tasida esa surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari ustidan shikoyat qilingan.

³ O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarga rioya qilinishining holati to‘g‘risida axborot. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 28 bet.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi pQ-5163-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/6445145>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIEDning 2027-yil 11-yanvardagi 28/10-10-160-sonli xati

⁶ <https://www.ombudsman.uz/uz/docs/qiynoqlarni-oldini-olish-boyicha-2023-yilda-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-oliy-majlisning-inson-huquqlari-boyicha-vakilining-ombudsmanning-maruzasi>

Ombudsman tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda qiynoq holatlarini aniqlash va oldini olish choralari ko'rish bilan bir qatorda, ushbu muassasalarda ushlab turilgan shaxslarning, ularning yaqin qarindoshlarining va himoyachilarining ruhiy, psixologik, jismoniy yoki boshqacha tarzda bosim o'tkazilganligi haqidagi shikoyatlari ham alohida nazoratga olingan holda o'rganishi natijasida, 2023-yilda Ombudsman nomiga huquq tartibot idoralari xodimlari tomonidan harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda ushlab turilgan shaxslarga nisbatan ruhiy, psixologik, jismoniy yoki boshqacha tarzda bosim o'tkazilganligi haqida jami 186 ta shikoyat xatlari kelib tushgan.

Mazkur shikoyatlar harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylardagi shaxslar, ularning qarindoshlari yoki himoyachilaridan kelib tushgan umumiy murojaatlarning yetti foizini tashkil etgan.

Kelib tushgan murojaatlar tegishli idoralar tomonidan nazoratga olinib, Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., (03/23/837/0241-son);
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son), <https://lex.uz/docs/-111460> ;
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son) <https://lex.uz/docs/-163629> ;
4. Минимальные стандартные правила Организации Объединенных Наций в отношении обращения с заключенными (Правила Нельсона Манделы). Обновленный проект для тюремной администрации XXI века (Брошюра). стр – 3. Подразделение юстиции, Отдел операций, Венский международный центр www.unodc.org ;
5. Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy tamoyillari <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-treatment-prisoners>;
6. “Mahkumlarning inson huquqlarini himoya qilish” maqola. UNESCO.<https://courier.unesco.org/en/articles/protecting-human-rights-prisoners>
7. “Mahkumlarning inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish” mavzusida maqola. Yevropa Kengashining Pristinadagi vakolatxonasi. <https://www.coe.int/en/web/pristina/enhancing-the-protection-of-human-rights>;
8. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahbuslar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (Mandela qoidalari). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ko'magida tayyorlangan o'zbek tiliga norasmiy tarjimasi;
9. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga rioya qilinishining holati to'g'risida axborot. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 101 bet.;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-iyundagi “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi pQ-5163-sonli Qarori. <https://lex.uz/doxs/6445145>;
11. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz rasmiy veb-sayti. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/makumlarning-uulari>;
12. <https://www.ombudsman.uz/uz/docs/qiynoqlarni-oldini-olish-boyicha-2023-yilda-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-oliy-majlisning-inson-huquqlari-boyicha-vakilining-ombudsmanning-maruzasi>